

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi
“O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”
PF-173-son Farmoni ijrosini ta’minlash yuzasidan
NAZORAT REJA

T/r	Farmon bandlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Ijro holati
1.	5. O‘zbekiston Respublikasida 2026-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazishni tashkil etish bo‘yicha hududiy komissiyalarning (keyingi o‘rinlarda – hududiy komissiyalar) namunaviy tarkibi 1a- va 1b-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.	1. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining hududiy komissiyalarning namunaviy tarkibiga asosan tarkibini tasdiqlatish choralarini ko‘rish.	2025-yil 1-oktabr	Hududiy statistika boshqarma boshliqlari	Bajarilgan. PF-173 1a va 1b ilovalariga muvofiq tegishli mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlariga ko‘ra hududiy komissiyalar tarkibi tasdiqlandi.
		2. Hududiy komissiyalar faoliyatini tashkil etish maqsadida chora-tadbirlar, media-reja loyihalarini tayyorlashda ishtirok etish.	2025-yil 1-oktabr	Hududiy statistika boshqarma boshliqlari, Targ‘ibot bo‘yicha Ishchi guruhi (U.Abdu Rasulov)	Bajarilgan. Hududiy komissiyalar uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi VMQ-629-son qarorining 6-ilovasi bilan media-reja tasdiqlangan.
		3. Xodimlarni o‘qitish uchun zarur bino va jihozlangan xonalarni tayyorlanishini tashkil etish.	2025-yil 15-oktabr	Hududiy statistika boshqarma boshliqlari, Z. Yuldoshev	Bajarilgan. Hududiy komissiyalar a‘zolari, statistika organlari va hududiy oliy ta’lim tashkilotlari xodimlarini o‘qitish davomida o‘qitish uchun zarur bino va jihozlangan xonalar bilan ta’minlandi.
		4. Tuman va shaharlarni ro‘yxatga olish va hisob uchastkalariga bo‘lgan holda tashkiliy rejalarini ishlab chiqish va tasdiqlashni tashkil etish.	2025-yil 15-oktabr	J. Qambarov, D. Zakirov,	Bajarilgan. Qo‘mitaning 15-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy tashkiliy reja asosida tuman va shaharlarni ro‘yxatga olish va hisob uchastkalariga bo‘lgan holda 25-oktabrga qadar tuman va shaharlar tashkiliy rejalarini, 1 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha tashkiliy rejalarini ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

T/r	Farmon bndlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
2.	6. Belgilansinki: (a) ro'yxatga olish tadbiri "mahalla yettiligi" tizimida ishlovchi xodimlarni 2025-yil 15-dekabrda 2026-yil 1-martgacha bo'lgan davrda jalb etish orqali o'tkaziladi. Bunda O'zbekiston mahallalari uyushmasi Milliy statistika qo'mitasi hamda mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda "mahalla yettiligi" tizimida ishlovchi xodimlar planshet qurilmalaridan foydalangan holda ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilishini ta'minlaydi; (b) ro'yxatga olish tadbirida ro'yxatga oluvchi sifatida ishtirok etadigan "mahalla yettiligi" tizimida ishlovchi xodimlar va boshqa jalb etiladigan xodimlar Jahon banki ishtirokida amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash" loyihasi doirasida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining bir yarim baravari miqdorida (soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni inobatga olgan	1. Mahalla uyushmasi bilan hamkorlikda "mahalla yettiligi" tizimida ishlovchi xodimlarni 2025-yil 15-dekabrda 2026-yil 1-martgacha bo'lgan davrda jalb etish choralarini ko'rish.	2025-yil 1-dekabr	J. Qambarov va boshqarma boshliqlari, Moliyalashtirish va xarid ishlarini amalga oshirish bo'yicha Ishchi guruhi (J.Shirinov)	Bajarilgan. Respublika shtabiga 1-nafardan "mahalla yettiligi" tizimida ishlovchi xodimlar va boshqa vazirlik va idoralardan masul xodimlar jalb etilgan, ular alohida xona, komputer texnikalari bilan ta'minlandi.
		2. Ro'yxatga olish tadbirida ro'yxatga oluvchi bo'lib ishtirok etadigan "Mahalla yettiligi" tizimi xodimlari va patronaj hamshiralarning sonini hududiy komissiyalardan olish.	2025-yil 1-oktabr		Bajarilgan. Tuman va shaharlarning tasdiqlangan tashkiliy rejalari asosida "Mahalla yettiligi" tizimi xodimlari va patronaj hamshiralarning soni olindi.
		3. Ro'yxatga olish tadbirida ro'yxatga oluvchi bo'lib ishtirok etadigan "Mahalla yettiligi" tizimi xodimlari va patronaj hamshiralarni rag'batlantirish maqsadida loyihaning smeta hisob kitoblari va boshqa zarur hujjatlarini ishlab chiqish.	2025-yil 20-oktabr		Bajarilgan. Ro'yxatga olish tadbirida ro'yxatga oluvchi bo'lib ishtirok etadigan "Mahalla yettiligi" tizimi xodimlari va patronaj hamshiralarni rag'batlantirish maqsadida loyihaning smeta hisob kitoblari ishlab chiqildi
		4. Mazkur rag'batlantirish mablag'larini tegishli vazirlik, idora va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining so'rovnomasiga asosan belgilangan tartibda ushbu vazirlik, idora va mahalliy	2026-yil 5-mart		Bajarilmoqda.

T/r	Farmon bandlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
	holda) bir martalik rag'batlantiriladi. Rag'batlantirish to'lovlari tegishli vazirlik, idora va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining so'rovnomasiga asosan Milliy statistika qo'mitasi tomonidan moliyalashtiriladi; (v) ro'yxatga olish tadbiriga jalb etiladigan xodimlar uchun ularning asosiy ish joyi, lavozimi va o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi.	o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazib berilishini ta'minlash. 5. Rag'batlantirish to'lovlarini tegishli vazirlik, idora va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ro'yxatga oluvchi bo'lib ishtirok etgan "Mahalla yettiligi" tizimi xodimlari va patronaj hamshiralarga o'z vaqtida to'lab berilishini nazorat qilish.	2026-yil 10-mart		Bajarilmoqda.
3.	7. Quyidagi tashkilotlar 2025-yil 10-oktabrga qadar Milliy statistika qo'mitasiga: (a) O'zbekiston mahallalari uyushmasi har bir mahalla kesimida ko'chalar bo'yicha xonadonlar va aholi soni to'g'risidagi elektron ma'lumotlarni; (b) Kadastr agentligi qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanayotgan tashkilotlar ro'yxatini elektron shaklda taqdim etsin.	1. O'zbekiston mahallalari uyushmasidan har bir mahalla kesimida ko'chalar bo'yicha xonadonlar va aholi soni to'g'risidagi elektron ma'lumotlarni hamda Kadastr agentligidan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanayotgan tashkilotlar ro'yxatini elektron shaklda olish. Bunda har bir mahallalar kesimida ma'lumotlarni, shu jumladan mahallalar chegarasi ko'rsatilgan xaritalar va kartografik ma'lumotlar olinishini tashkil etish.	2025-yil 10-oktabrga qadar	J. Qambarov	Bajarilgan. O'zbekiston mahallalari uyushmasining 2025-yil 9-oktabrdagi 02-02-18/1258-son xati bilan har bir mahalla kesimida ko'chalar bo'yicha xonadonlar va aholi soni to'g'risidagi elektron ma'lumotlar olindi. Kadastr agentligining 2025-yil 8-oktabrdagi 03/11-1553-son xati bilan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanayotgan tashkilotlar ro'yxati elektron shaklda olindi.

T/r	Farmon bandlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
4.	8. Ro'yxatga olish tadbiri doirasida quyidagilar: (a) davlat organlari va tashkilotlari 2026-yil 15-yanvardan 31-yanvarga qadar o'z tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarning census.stat.uz portalida ro'yxatdan o'tishini; (b) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi respublikadagi barcha o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlari, shuningdek, davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallarida tahsil olayotgan talabalarning census.stat.uz portalida ro'yxatdan o'tishini; (v) Qishloq xo'jaligi vazirligi O'zbekiston fermerlari kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda fermer xo'jaliklari, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon	1. Hududlar kesimida davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat muassasalari, davlat unitar korxonalari, aksiyadorlik jamiyatlari hamda ularning tizim korxona va tashkilotlari idora va tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan xodimlar ro'yxatini shakllantirish.	2025-yil 1-dekabr	J. Qambarov	Bajarilgan. Hududlar kesimida 34980 ta davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat muassasalari, davlat unitar korxonalari, aksiyadorlik jamiyatlari hamda ularning tizim korxona va tashkilotlari ro'yxati Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda shakllantirilgan.
		2. Vazirlik, idora va tashkilotlarni Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishlari uchun videorolik va boshqa tushuntirish materiallari bilan ta'minlash.	2025-yil 15-dekabr	Targ'ibot bo'yicha Ishchi guruhi (U.Abdu Rasulov)	Bajarilgan. Onlayn ro'yxatdan o'tish bo'yicha qo'llanma va boshqa targ'ibot materiallari tayyorlanib, e'lon qilingan. https://www.youtube.com/watch?v=tCSOWFds3Fc&t=1s https://www.youtube.com/watch?v=RIQHBCJyWrk https://t.me/census_materiallari
		3. Shakllantirilgan ro'yxat bo'yicha hududlar kesimida vazirlik, idora va tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan xodimlarni census.stat.uz portali orqali ro'yxatdan o'tishlarini nazorat qilish.	2026-yil 15-31-yanvar	Vazirlik va idoralar bilan ishlash bo'yicha ishchi guruh (Sh. Odilov)	Bajarilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari bilan birgalikda 2026-yil 15-yanvardan 31-yanvargacha davlat organlari va tashkilotlari, ularning hududiy organlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning oila a'zolari bilan birga ro'yxatga olish portali (census.stat. uz)da ro'yxatdan o'tishi ta'minlandi.
		4. Fermer xo'jaliklari, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ro'yxatini	2025-yil 1-noyabr	L.Mirsoatov, Sh.Odilov	Bajarilgan. Korxona va tashkilotlar ro'yxatini shakllantirish uchun har oyda Korxona va tashkilotlar registr bazasi taqdim etib kelinmoqda. Statistik registr yuritish bo'limi tomonidan

T/r	Farmon bndlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
	xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar va asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lmagan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanayotgan korxona va tashkilotlarning Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishini; (g) Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Tashqi ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Din ishlari bo'yicha qo'mita 2025-yil 1-noyabrdan boshlab aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olish ishlari 2-ilovaga muvofiq tashkil etilishini ta'minlasin.	shakllantirish va Qishloq xo'jaligi vazirligiga taqdim etish.			fermer xo'jaliklari, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ro'yxati Qishloq xo'jaligi vazirligiga taqdim etildi.
		5. Kadastr agentligi bilan hamkorlikda asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lmagan qishloq xo'jaligi yerlariga ega korxona va tashkilotlar katalogini shakllantirish va Qishloq xo'jaligi vazirligiga taqdim etish.	2025-yil 15-noyabr	J. Qambarov, Sh.Odilov	Bajarilgan. Statistik registr yuritish bo'limi tomonidan fermer xo'jaliklari, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ro'yxati Qishloq xo'jaligi vazirligiga taqdim etildi.
		6. Yuqoridagi toifadagi subyektlarning Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishlarini Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan hamkorlikda nazoratga olish.	2026-yil 15-yanvar	J. Qambarov, Sh.Odilov	Bajarilgan. Qishloq xo'jaligi yerlariga ega korxona va tashkilotlarni Internet tarmog'i orqali Estat 4.0 axborot tizimida Qishloq xo'jaligi oid 6-shakl savolnomasi to'ldirilishi uchun veb-forma ishlab chiqildi.
		7. 2-ilovadagi mas'ul vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlar ro'yxati va ulardagi xodimlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish.	28-fevral 2025-yil 15-oktabr	J. Qambarov	Bajarilgan. Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Tashqi ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Din ishlari bo'yicha qo'mitalari xodimlari to'g'risidagi ma'lumot shakllantirilgan.
		8. Aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlardan qatnashadigan ro'yxatga oluvchi xodimlar ro'yxatini shakllantirish va ularni	2025-yil 25-oktabr	O'qitish bo'yicha Ishchi guruhi (Z. Yuldoshev), (J. Qambarov)	Bajarilgan. Aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlardan qatnashadigan ro'yxatga oluvchi xodimlar ro'yxatini shakllantirish maqsadida vazirlik va idoralarga 2025-yilning 13-oktabr kuni 01/3-20-03-62-son xat yuborildi. Ushbu

T/r	Farmon bndlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
		o'qitish.			xatga javob sifatida barcha vazirlik va idoralardan tegishli mas'ul shaxslar royxati shklantirildi. Ularni o'qitish ishlari 2025-yilning 24-oktabr kuni 1-bosqich va 31-oktabr kuni 2-bosqichda amalga oshirildi.
		9. Biriktirilgan mas'ul xodimlar tomonidan aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olish ishlarini tashkil qilish.	2025-yil 1-noyabrdan boshlab	J. Qambarov	Bajarilgan. 2025 yil 20 noyabr holatiga Respublika hududlarida ayrim toifalar bo'yicha aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish ishlari to'liq yakunlandi. Barcha vazirlik va idoralar kesimida ro'yxatga olish ko'rsatkichlari 100 foizni tashkil etdi.
5.	9. Vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan shaxsga va qishloq xo'jaligi faoliyatiga doir ma'lumotlar ro'yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda tegishli ma'lumotlar 2026-yil 15-fevralga qadar "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali Milliy statistika qo'mitasiga taqdim etiladi.	1. Farmonning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan vazirlik va idoralar tomonidan taqdim etiladigan shaxsga va qishloq xo'jaligi faoliyatiga doir ma'lumotlar ro'yxatidan aniq olinadigan ma'lumotlarning batafsil ro'yxatini kelishib olish.	2025-yil 1-noyabr	Sh.Odilov, B.Imamov, J. Qambarov,	Bajarilgan. Adliya vazirligi bilan Oila tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar ro'yxati kelishib olindi. Tashkilot bilan texnologik yo'riqnoma ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston mahallalari uyushmasi bilan Oilalar soni, maxalla yettiligi ma'lumotlari bo'yicha ma'lumotlar ro'yxati kelishildi. Tashkilot bilan texnologik yo'riqnoma ishlab chiqilmoqda. Kadastr agentligi Turarjoy ma'lumotlari bo'yicha ma'lumotlar ro'yxati kelishilmoqda. Soliq qo'mitasi Rasmiy ish bilan band bo'lgan fuqarolarga oid ma'lumotlar bo'yicha ma'lumotlar ro'yxati kelishilmoqda. Ichki ishlar vazirligi Aholining tarkibi, oilaviy holati va migratsiyasi, doimiy yashash va vaqtincha turgan joyi to'g'risida ma'lumotlar bo'yicha ma'lumotlar ro'yxati kelishilmoqda. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Aholining mehnat faoliyati va chet el fuqarolarining mehnat faoliyati bo'yicha

T/r	Farmon bandlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
					ma'lumotlar ro'yxati kelishilmoqda. O'zbekiston fermerlari kengashi Fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi faoliyatiga doir ma'lumotlar ro'yxati kelishilmoqda. Tuman va shahar hokimliklari bilan Hokimlik zaxirasidagi yer maydonlariga oid ma'lumotlar ro'yxati kelishilmoqda.
		2. Shakllantirilgan ro'yxat bo'yicha "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali ma'lumotlarni olish.	2026-yil 15-fevral	Sh.Odilov, B.Imamov, J. Qambarov,	Bajarilgan. Farmoning 3-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar ro'yxatiga asosan elektron ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish bo'yicha vazirlik va idoralarga Mlliy statisitka qo'mitasining 2025-yil 26-sentabrdagi 01/3-19-05-174-son xati yuborildi. Vazirlik va idoralar bilan ma'lumot almashinish metodlari kelishildi. Integratsiya orqali ma'lumotlar qabul qilinmoqda.
6.	10. Ro'yxatga olish tadbiri doirasida vazirlik, idora va tijorat banklari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari hudud, tuman va shaharlarga 4-ilovaga muvofiq biriktirilsin, ular zimmasiga tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda quyidagi vazifalar yuklatilsin: (a) tuman (shahar)larda ro'yxatga olish shtablarini tashkil etish va ularning faoliyatini nazorat qilish; (b) har bir mahallada	1. Tuman (shahar)larda ro'yxatga olish shtablari tarkibini tuzilishi va tasdiqlanishini nazorat qilish.	2025 yil 1-oktabr	J. Qambarov	Bajarilgan. Hokimiyatlar tomonidan tuman (shahar)larda ro'yxatga olish shtablari tarkibi tuzildi va tasdiqlandi.
		2. Tuman (shahar)larda ro'yxatga olish shtab a'zolarining vazifalarini taqsimlash.	2025 yil 1-oktabr	J. Qambarov	Bajarilgan. Tuman (shahar)larda ro'yxatga olish shtab a'zolarining vazifalari belgilab berildi.
		3. Ro'yxatga olishga jalb etiladigan "Mahalla yettiligi" tizimi xodimlari o'qitilishini tashkil qilish.	2025-yil 1-15-dekabr	O'qitish bo'yicha Ishchi guruhi (Z.Yuldoshev)	Bajarilgan. Ro'yxatga olish tadbirida ishtirok etuvchilarni o'qitish bo'yicha dastur va kalendar reja ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Kalendar rejaga muvofiq ro'yxatga oluvchi (mahalla yettiligi) xodimlarni o'qitish 3 bosqichda amalga oshirilishi belgilab

T/r	Farmon bndlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
	“mahalla yettiligi” tizimida ishlovchi xodimlar tomonidan ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ishlarini tashkil etish; (v) tuman (shahar)larni ro'yxatga olish va hisob uchastkalariga bo'lish bo'yicha ishlab chiqilgan tashkiliy reja asosida ro'yxatga olish tadbirini tashkil etish va nazorat qilish; (g) ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish uchun zarur bo'ladigan binolar yoki xonalar ajratish, shuningdek, ularni tegishli moddiy-texnika bazasi va transport vositalari bilan ta'minlash; (d) aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olish ishlarini tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirish.				olindi hamda, 2025-yilning 20-25-oktabr kunlari ro'yxatga oluvchi (mahalla yettiligi) xodimlarni o'qitishning 1-bosqichi o'tkazildi. - 10-23-noyabr kunlari mamlakatning barcha hududlarida mahalla tizimida faoliyat yuritayotgan 50 mingdan ortiq mahalla yettiligi xodimlari yo'nalishlar bo'yicha kichik guruhlariga bo'lingan holda 2-bosqichda planshet yoki mobil telefondan foydalanib amaliy o'qitish o'tkazildi; - 2026-yilning 5–13-yanvar kunlari mamlakatning barcha hududlarida mahalla tizimida faoliyat yuritayotgan 50 mingdan ortiq mahalla yettiligi xodimlari yo'nalishlar bo'yicha kichik guruhlariga bo'lingan holda 3-bosqichda amaliy o'qitildi.
		4. Internet jahon axborot tarmog'i orqali ro'yxatga olish jarayonlarini belgilangan muddatlarda sifatli o'tkazilishini tashkil etish.	2026-yil 15-31-yanvar	J. Qambarov, Sh.Odilov	Bajarilgan. Internet tarmog'i orqali ro'yxatga olish jarayonlarini belgilangan muddatlarda sifatli o'tkazildi, oldindan ishlab chiqilgan dashboardlar orqali onlayn yuborilgan savolnomalar joyida tekshirildi va xatolari qaytarildi. Hozirgi kunda onlayn ro'yxatdan o'tgan xonadon manzillari taxlil qilinib, “mahalla yettiligi” xodimlari planshetiga yuborish ishlari amalga oshirilmoqda.
		5. Planshet qurilmalari orqali ro'yxatga olish ishlarini respondentlar yashaydigan (vaqtincha bo'lib turgan) turar joy va noturar joylarga, binolarga tashrif buyurgan holda uyma-uy yurib so'rov o'tkazish orqali sifatli o'tkazilishini tashkil etish.	2026-yil 4-fevral-28-fevral	J. Qambarov, Sh.Odilov	Bajarilgan. 4-28 fevral kunlari “mahalla yettiligi” xodimlari tomonidan uyma-uy yurib ro'yxatga olish ishlari to'liq yakunlandi va planshet qurilmalari orqali ro'yxatga olish ishlarini respondentlar yashaydigan (vaqtincha bo'lib turgan) turar joy va noturar joylarga, binolarga tashrif buyurgan holda uyma-uy yurib so'rov o'tkazish orqali sifatli o'tkazilishi to'liq ta'minlandi.

T/r	Farmon bndlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
		6. Tuman (shahar)larda tuzilgan ro'yxatga olish va hisob uchastkalarini ro'yxatga olishning tashkiliy rejasi bilan solishtirish.	2025-yil 1-noyabr	J. Qambarov	Bajarilgan. Qo'mitaning 15-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy tashkiliy reja asosida Tuman (shahar)larda tuzilgan ro'yxatga olish va hisob uchastkalarini ro'yxatga olishning tashkiliy rejasi tasdiqlandi.
		7. Ro'yxatga olish va hisob uchastkalari faoliyatini ro'yxatga olish davrida nazorat qilish.	2025-yil 1-noyabr – 2026-yil 1-mart	J. Qambarov	Bajarilgan Ro'yxatga olish va hisob uchastkalari faoliyatini ro'yxatga olish davrida nazorat qilish vazifasi belgilangan tartibda to'liq amalga oshirildi. Ro'yxatga olish jarayonida uchastkalar faoliyati ustidan doimiy monitoring olib borildi, aniqlangan kamchiliklar joyida bartaraf etildi hamda so'rovnomalar belgilangan muddatlarda topshirilishi ta'minlandi.
		8. Ro'yxatga olishga jalb etiladigan "Mahalla yettiligi" xodimlarini o'qitish uchun ajratilgan bino yoki xonalarda aloqa vositalari va boshqa zarur jihozlar mavjudligini xatlovdan o'tkazish.	2025-yil 10-noyabr	J. Qambarov, Z. Yuldoshev	Bajarilgan. Ro'yxatga olishga jalb etiladigan "Mahalla yettiligi" xodimlarini o'qitish uchun ajratilgan bino yoki xonalarda aloqa vositalari va boshqa zarur jihozlar mavjudligi xatlovdan o'tkazilib, o'qish tashkil etiladigan muassasalar kesimida manzilli ma'lumotlar shakllantirildi.
		9. Tuman (shahar) ro'yxatga olish shtablari tomonidan ro'yxatga olish va hisob uchastkalarini zaruratga ko'ra transport vositalari bilan ta'minlanishini nazorat qilish.	Zaruratga ko'ra	J. Qambarov, J. Shirinov,	Bajarilgan. Ro'yxatga olish va hisob uchastkalarinii zaruratga ko'ra transport vositalari bilan ta'minlanish maqsadida Jahon banki ishtirokida amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash" loyihasi doirasida hududiy statistika boshqarmalari uchun 14 ta "Damas" avtomashinasi xarid qilinib yetkazildi

T/r	Farmon bndlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
		10. Aholining ayrim toifalari mavjud bo'lgan mahallalar ro'yxatini shakllantirishini nazorat qilish.	2025-yil 15-oktabr	J. Qambarov	Bajarilgan. Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Tashqi ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Din ishlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan respondentlar va joylashgan manzili bo'yicha ma'lumot shakllantirildi
		11. Aholining ayrim toifalari mavjud maxsus muassasalar tomonidan belgilangan ro'yxatga oluvchi xodimlarni o'qitish jarayonlarida ularning ishtirokini ta'minlash.	2025-yil 1-5-noyabr	J. Qambarov, Z.Yuldoshev,	Bajarilgan. Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Tashqi ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Din ishlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan ro'yxatga oluvchi mutaxassislar manzili ro'yxati shakllantirildi. - 24-oktyabr kuni barcha hududlarda ayrim toifalarni ro'yxatga oluvchilarni o'qitish tashkil etildi.
		12. Biriktirilgan xodim tomonidan muassasa va tashkilotlarda aholining ayrim toifalarini ro'yxatdan o'tkazishlarini nazorat qilish.	2026-yil 15-yanvar- 28-fevral	J. Qambarov	Bajarilgan. 2025 yil 20 noyabr holatiga Respublika hududlarida ayrim toifalar bo'yicha aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish ishlari to'liq yakunlandi. Barcha vazirlik va idoralar kesimida ro'yxatga olish ko'rsatkichlari 100 foizni tashkil etdi.

T/r	Farmon bndlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
7.	11. Ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha uslubiy, tashkiliy hamda ma'lumotlarni qayta ishlash va e'lon qilish ishlarini amalga oshirish maqsadida: (a) vazirlik va idoralarda maqbullashtirilgan shtat birliklari hisobidan Milliy statistika qo'mitasi markaziy apparati boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 14 ta shtat birligiga oshirilsin; (b) 2025-yil 1-oktabrdan 2026-yil 1-mayga qadar hududiy statistika boshqarmalarining har birida fuqarolik-huquqiy tushdagi shartnoma asosida Milliy statistika qo'mitasiga 2026-yilda ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish uchun ajratiladigan O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti mablag'lari hisobidan 5 nafardan mutaxassis jalb etilsin.	1. Milliy statistika qo'mitasi markaziy apparatining yangilangan shtatlar jadvalini tasdiqlash hamda malakali xodimlar bilan to'ldirilishini ta'minlash.	2025-yil 10-oktabr	J. Shirinov, Z. Talipova	Bajarilgan. 2026-yil yanvar-fevral oylarida o'tkaziladigan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha uslubiy, tashkiliy hamda ma'lumotlarni qayta ishlash va e'lon qilish ishlarini samarali va tizimli tashkil qilish maqsadida Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil 22-sentabrdagi 232-sonli buyrug'i bilan Markaziy apparatning shtatlar jadvali tasdiqlandi. Hujjatlarini qabul qilish bo'yicha tezkor e'lon berildi. Suhbat asosida malakali xodimlar bilan to'ldirilmoqda.
		2. Hududiy statistika boshqarmalarining har birida fuqarolik-huquqiy tushdagi shartnoma asosida o'rtacha 5 nafardan mutaxassis jalb etilishini tashkil etish.	2025-yil 10-oktabr	J. Shirinov, V.To'xtayev Z. Talipova	Bajarilgan. 2025-yil 1-oktabrdan 2026-yil 1-mayga qadar hududiy statistika boshqarmalarining har birida fuqarolik-huquqiy tushdagi shartnoma asosida Milliy statistika qo'mitasiga 2026-yilda ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish uchun ajratiladigan O'zbekiston Respublikasi Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan 5 nafardan mutaxassis jalb etilishi vazifasi belgilangan. Mazkur Farmon ijrosi yuzasidan, hududiy statistika boshqarmalarining har birida fuqarolik-huquqiy tushdagi shartnoma asosida 5 nafardan mutaxassis jalb etilishi borasida internet tarmoqlari orqali, jumladan, Milliy statistika qo'mitasining stat.uz rasmiy sayti va hududiy boshqarmalar tomonidan rasmiy saytlar orqali aholi va qishloq xo'jaligi jarayonlarini ro'yxatga olishni tashkil etish va o'tkazish uchun mutaxassislar hujjatlarini qabul qilish bo'yicha tezkor e'lon berildi. Nomzodlar tomonidan yuborilgan

T/r	Farmon bandlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
					ma'lumotnomalar Ishchi guruh a'zolari ishtirokida nomzodlar bilan suhbat o'tkazildi va ulardan 70 nafari tanlab olindi. Suhbatdan o'tgan 70 nafar nomzodlar bilan hududiy boshqarmalar o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar imzolandi.
8.	12. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lar hokimliklari: (a) 2025-yil 10-oktabrga qadar hududiy komissiyalar tarkibini tasdiqlasin; (b) 2025-yil 20-oktabrga qadar hududiy komissiyalarning chora-tadbirlar rejasini tasdiqlasin; (v) 2025-yil 1-noyabrga qadar: (i) tuman (shahar)larda ro'yxatga olish shtabi faoliyatini tashkil etsin hamda ro'yxatga olish tadbirida ishtirok etadigan asosiy va zaxira xodimlar ro'yxatini shakllantirsin va tasdiqlasin; (ii) ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishga jalb etiladigan xodimlarni o'qitish uchun mebellar va	1. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha hududiy komissiyalar tarkibi tasdiqlanishini ta'minlash. 2. Tuman (shahar) hokimliklari huzurida O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari tarkibini tasdiqlanishini ta'minlash. 3. Hududiy komissiyalarning chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanishini ta'minlash.	2025-yil 10-oktabr 2025-yil 10-oktabr 2025-yil 10-oktabr	J. Qambarov J. Qambarov J. Qambarov	Bajarilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha hududiy komissiyalar tarkibi tasdiqlandi Bajarilgan. Tuman (shahar) hokimliklari huzurida O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari tarkibi tasdiqlangan. Bajarilgan. Hududiy komissiyalarning chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi

T/r	Farmon bndlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
	aloqa vositalari bilan jihozlangan vaqtincha bino yoki xonalarni ajratsin; (g) 2025-yil 15-noyabrga qadar hudud, tuman (shahar)larni ro'yxatga olish va hisob uchastkalariga bo'lgan holda tashkiliy rejalarni tasdiqlasin; (d) ro'yxatga olish tadbirining aholi o'rtasida keng yoritilishini tashkil etsin; (j) ro'yxatga olish tadbirining o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishini ta'minlasin hamda buning uchun amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha kunlik nazoratni o'rnatish.	4. Tuman (shahar) komissiyalarining chora-tadbirlar rejasini tasdiqlanishini ta'minlash.	2025-yil 20-oktabr	J. Qambarov	Bajarilgan. Tuman (shahar) komissiyalarining chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan va hokimiyat qarorlari bilan tasdiqlangan.
		5. Tuman (shahar)larda ro'yxatga olish shtab faoliyatini tashkil etilishini nazorat qilish.	2025-yil 20-oktabr	J. Qambarov	Bajarilgan. Tuman (shahar)larda ro'yxatga olish shtab faoliyati tashkil etildi.
		6. Ro'yxatga olish tadbirida ishtirok etadigan "mahalla yettiligi" va zaxira xodimlar ro'yxatini shakllantirilishi va tasdiqlanishini nazorat qilish.	2025-yil 1-noyabr	J. Qambarov	Bajarilgan. Qo'mitaning 15-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy tashkiliy reja asosida Ro'yxatga olish tadbirida ishtirok etadigan "mahalla yettiligi" va zaxira xodimlar ro'yxatini shakllantirildi.
		7. Ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishga jalb etiladigan "mahalla yettiligi" va zaxira xodimlarni o'qitish uchun mebellar va aloqa vositalari bilan jihozlangan vaqtincha bino yoki xonalarni ajratilishini nazorat qilish.	2025-yil 1-noyabr	J. Qambarov Z.Yuldoshev	Bajarilgan. Ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishga jalb etiladigan "mahalla yettiligi" va zaxira xodimlarni o'qitish uchun mebellar va aloqa vositalari bilan jihozlangan vaqtincha bino yoki xonalarni ajratilishi hududlar bilan o'tkazilayotgan shtab yig'ilishida muxokama qilindi. Ularni o'qitish ishlari 2025-yilning 24-oktabr kuni 1-bosqich va 31-oktyabr kuni 2-bosqichda amalga oshirildi.
		8. Tuman (shahar)larda ro'yxatga olishning tashkiliy rejasini ishlab chiqilishini nazorat qilish;	2025-yil 10-noyabr	J. Qambarov	Bajarilgan. Qo'mitaning 15-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy tashkiliy reja asosida Tuman (shahar)larda ro'yxatga olishning tashkiliy rejasini ishlab chiqildi.

T/r	Farmon bamlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
		9. Ro'yxatga olishning tashkiliy rejasini hududiy komissiyalar tomonidan tasdiqlanishini nazorat qilish.	2025-yil 15-noyabr	J. Qambarov	Bajarilgan. Ro'yxatga olishning tashkiliy rejasini hududiy komissiyalar tomonidan tasdiqlash ishlari yakunlandi.
		10. Hududlarda targ'ibot materiallarini tayyorlanishi va aholining keng ommasiga ro'yxatga olish tadbirining mazmun mohiyatini yoritilishi bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borilishini nazorat qilish.	2026-yil 1-mart	Targ'ibot-bo'yicha Ishchi guruhi (U.Abdu Rasulov)	Bajarilgan. Ushbu bandning ijrosini o'z muddatida bajarilishini ta'minlash maqsadida, hududlarda jamoat joylarida plakatlar o'rnatilib, aholiga flayer, buklet va boshqa tarqatma materiallar tarqatildi.
		11. Hududlarda bannerlar va keng o'lchamdagi ekranlar manzillar ro'yxatini tuzish hamda targ'ibot materiallarini joylashtirilishini va ijtimoiy soha obyektlariga yetkazilishini nazorat qilish.	2025-yil oktabr - 2026-yil fevral	Hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi (U.Abdu Rasulov)	Bajarilgan. Barcha hududlarda aholi gavjum joylarda, ijtimoiy soha obyektlarida maxsus joylar ro'yxati tuzilib, shu asosda muntazam ravishda bannerlar o'rnatilmoqda, ekranlarda videorliklar namoyish qilindi.
		12. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan ro'yxatga olish ishlariga tayyorgarlik ko'rish holatini o'rganish bo'yicha kunlik nazorat o'rnatilganligini joylarga borgan holda o'rganish va kamchiliklar yuzasidan respublika	2025-yil 15-oktabr - 2026-yil 1-mart	J. Qambarov	Bajarilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan ro'yxatga olish ishlariga tayyorgarlik ko'rish holatini o'rganish bo'yicha kunlik nazorat o'rnatilganligi joylarga chiqqan holda o'rganildi. O'rganishlar natijasida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tegishli choralar ko'rildi hamda respublika shtabiga belgilangan tartibda muntazam axborot kiritib borildi.

T/r	Farmon bndlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
		shtabiga axborot kiritish.			
		13. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan ro'yxatga olishni o'tkazish davrida ro'yxatga olish jarayonlarini o'rganish bo'yicha kunlik nazorat o'rnatilganligi bo'yicha tuman (shahar)ga borgan holda o'rganish va respublika shtabiga axborot kiritish.	2025-yil 15-oktabr - 2026-yil 1-mart	J. Qambarov	Bajarilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan ro'yxatga olishni o'tkazish davrida ro'yxatga olish jarayonlarini o'rganish bo'yicha kunlik nazorat o'rnatilganligi tuman (shahar)larga chiqqan holda o'rganildi. O'rganish yakunlari bo'yicha aniqlangan holatlar tahlil qilindi va respublika shtabiga belgilangan tartibda muntazam ravishda axborot kiritib borildi.
9.	13. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniya, Raqamli texnologiyalar vazirligi ro'yxatga olish tadbirining maqsad va vazifalari ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda quyidagilarni inobatga olgan holda keng yoritilishini ta'minlasin: (a) respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalarida maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil etish;	1. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonini yoritishga qaratilgan targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish bo'yicha media rejani ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish.	2025-yil 15-oktabr	Targ'ibot-bo'yicha Ishchi guruhi (U.Abdurasulov)	Bajarilgan. Media-reja ishlab chiqildi. Vazirlar Mahkamasining 629-sonli qarori 6-ilovasi bilan tasdiqlandi.
		2. Ro'yxatga olishning mazmun-mohiyatini ochib beruvchi hamda aholini faol ishtirok etishga da'vat etuvchi turli videoroliklar va ijtimoiy reklamalar uchun ssenariylar ishlab chiqish va tayyorlash.	2025-yil 20-oktabr 2026-yil 28-fevral		Bajarilgan. 1. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha o'zbek, rus, ingliz, qoraqalpoq va tojik tillarida 1 ta videorolik tayyorlanib, televideniya, avtobus, metro va led-ekranlarda yoritildi. 2. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha o'zbek, rus, ingliz tilarida audio xabarlar tayyorlandi va bozor va radiolar eshittirildi.

T/r	Farmon bandlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
	(b) videoroliklar va ijtimoiy reklamalarni televideniyeda namoyish etish va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish; (v) SMS-xabarnoma yuborishni tashkil etish.				3. Yosh bolalar auditoriyasi uchun ro'yxatga olish jarayonining ahamiyatini sodda va qiziqarli shaklda tushuntiruvchi multiplikatsion rolik tayyorlandi. Rolik telegram orqali tarqatildi. 4. OneID tizimiga ulanish va bu orqali ro'yxatga olish savolnomasiga kirish bo'yicha alohida videorolik tayyorlandi. 5. Ro'yxatga olishning tadbirkor va investorlarga foydali tomonlari bo'yicha ssenariy yozildi. Rolik tayyorlash uchun YuNFPA va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil matbuot xizmatiga ssenariy tashlab berildi. 6. Aholini firibgarlik holatlaridan ogohlantirish maqsadida maxsus videorolik tayyorlash uchun ssenariy yozildi va rolikni tayyorlash ishlari amalga oshirilmoqda.
		3. Respublika va mahalliy OAVda maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil etish.	2026-yil 1-mart		Bajarilgan. O'zbekiston 24 telekanali "Axborot" informatsion dasturida o'zbek/rus tillarida chiqish qilindi. Studiya 24 dasturida 20 daqiqalik savol-javob suhbat tashkil etildi. "Maxsus reportaj" ko'satuvi uchun alohida tahliliy reportaj tayyorlab berildi.
		4. Videoroliklar va ijtimoiy reklamalarni televideniyeda namoyish etish va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish choralarini ko'rish.	2026-yil 1-mart		Bajarilgan. O'zbekiston 24 telekanali "Axborot" informatsion dasturida o'zbek/rus tillarida chiqish qilindi. Studiya 24 dasturida 20 daqiqalik savol-javob suhbat tashkil etildi. "Maxsus reportaj" ko'satuvi uchun alohida tahliliy reportaj tayyorlab berildi.

T/r	Farmon bndlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
		5. Aholiga SMS-xabarnoma yuborishni tashkil etish.	2026-yil yanvar		Bajarilgan. Mazkur band ijrosini ta'minalsh maqsadida 2025-yilning 21-dekabr kuni Milliy statistika qo'mitasi tomonidan Raqamli texnologiyalar vazirligiga 01/3-17-03-104-sonli xat hamda SMS-xabarnoma matni yuborilgan. “O‘zbektelekom” AJ, “Unitel” MChJ, “Universal Mobile Systems” MChJ, “Coscom” MChJ, “Rubicon Wireless Communication” MChJ va “Humans” MChJ mobil aloqa operatorlari abonentlariga taqdim qilingan matnlari asosida beg‘araz 13-yanvar, 20-yanvar va 3-fevral sanalarida SMS-xabarlar yuborilish tashkillashtirildi.
10.	14. Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasida 2026-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar rejasini tasdiqlasin.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritishni ta'minlash.	2025-yil 19-oktabr	J. Qambarov, V.To‘xtayev	Bajarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrda "O‘zbekiston Respublikasidagida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 629-son qarori tasdiqlandi.
11.	15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ–455-son qarori bilan tasdiqlangan Birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning 2025–2027-yillar uchun budjet mablag‘laridan foydalanish	Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazishda 2025–2027-yillar uchun budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarni nazarda tutish.	2025-2026-yillar 31-dekabr	J.Shirinov, O.Bobojonov	Bajarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ–455-son qarori bilan tasdiqlangan Birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning 2025–2027-yillar uchun budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlariga 5-ilovaga muvofiq o‘zgartirish kiritildi.

T/r	Farmon bamlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
	bilan bog'liq maqsadli indikatorlariga 5-iloraga muvofiq o'zgartirish kiritilsin.				
12.	16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlari 6-iloraga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.	Ma'lumot va rahbarlik uchun.	2025-yil sentabr	V.To'xtayev, J. Qambarov	Ma'lumot va rahbarlik uchun qabul qilindi.